



ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>



PARTICIPATION OF UZBEK ATHLETES AT THE PARIS 2024 PARALYMPIC GAMES: RECORDS AND MEDALS

Farrukh Fayziyev

PhD student

Samarkand State University

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Paris-2024 Paralympic Games, athletes of Uzbekistan, Asila Mirzayorova, Husniddin Norbekov, new records, gold medals, sports achievements, coaches' contribution, technological support, social importance of sports.

Received: 13.12.24

Accepted: 15.12.24

Published: 17.12.24

Abstract: This article talks about the achievements of Uzbek athletes at the Paris-2024 Paralympic Games. Our sportsmen won 10 gold, 9 silver and 7 bronze medals and recorded the highest result in the history of the country. Athletes such as Asila Mirzayorova and Knusniddin Norbekov set new records and increased the reputation of Uzbekistan on the world stage. The article focuses on the will of athletes, the contribution of coaches and the influence of technological support on the results.

PARIJ – 2024 PARALIMPIYA O‘YINLARIDA O‘ZBEKISTON SPORTCHILARINING ISHTIROKI: REKORD VA MEDALLAR

Farrux Fayziyev

tayanch doktorant

Samarqand davlat universiteti

Samarqand, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Parij-2024 Paralimpiya o‘yinlari, O‘zbekiston sportchilari, Asila Mirzayorova, Husniddin Norbekov, yangi rekordlar, oltin medallar, sport yutuqlari, murabbiylar hissasi, texnologik qo‘llab-quvvatlash, sportning ijtimoiy ahamiyati.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Parij-2024 yilgi Paralimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston sportchilarining yutuqlari haqida so‘z yuritiladi. Sportchilarimiz 10 ta oltin, 9 ta kumush va 7 ta bronza medalni qo‘lga kiritib, mamlakat tarixidagi eng yuqori natijani qayd etishdi. Asila Mirzayorova va Husniddin Norbekov kabi sportchilar yangi rekordlar o‘rnatib, jahon maydonida O‘zbekiston obro‘sini oshirdi. Maqolada sportchilarining irodasi, murabbiylarning hissasi va texnologik qo‘llab-quvvatlashning

УЧАСТИЕ УЗБЕКСКИХ СПОРТСМЕНОВ НА ПАРАЛИМПИЙСКИХ ИГРАХ-2024 В ПАРИЖЕ: РЕКОРД И МЕДАЛИ

Фаррух Файзиев

поддержка докторанта

Самаркандский государственный университет

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Паралимпийские игры Париж-2024, спортсмены Узбекистана, Асила Мирзаёрова, Хусниддин Норбеков, новые рекорды, золотые медали, спортивные достижения, вклад тренеров, технологическое обеспечение, социальная значимость спорта.

Аннотация: В данной статье рассказывается о достижениях узбекских спортсменов на Паралимпийских играх Париж-2024. Наши спортсмены завоевали 10 золотых, 9 серебряных и 7 бронзовых медалей и зафиксировали самый высокий результат в истории страны. Такие спортсмены, как Асила Мирзаёрова и Хусниддин Норбеков установили новые рекорды и повысили репутацию Узбекистана на мировой арене. В статье акцентируется внимание на воле спортсменов, вкладе тренеров и влиянии технологического обеспечения на результаты.

Kirish. Paralimpiya o'yinlari va unda O'zbekiston sportchilarining ko'rsatgan natijalari xususida gapirish avvalida, uning tarixi xususida qisqacha to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. 1948-yil 29-iyulda London Olimpiadasining ochilish marosimi kuni doktor Lyudvig Guttmann nogironlar aravachasidagi sportchilar uchun birinchi sport musobaqasini tashkil qildi. Ushbu musobaqa Stok Mandevil o'yinlari deb nomlanib, Paralimpiya harakatining boshlanishiga sabab bo'ldi. Unda kamondan otish musobaqasida 16 nafar yarador harbiy xizmatchi va ayollar ishtirok etishdi. 1960 yilda Italiyada bo'lib o'tgan Rim Paralimpiya o'yinlari Stok Mandevil o'yinlarining rivojlanishi sifatida tarixga kirdi. Ushbu musobaqada 23 davlatdan 400 nafar sportchi ishtirok etdi va o'shandan buyon har to'rt yilda yozgi Paralimpiya o'yinlari muntazam o'tkazib kelmoqda. 1976 yilda Shvetsiyada birinchi qishki Paralimpiya o'yinlari o'tkazilib, ular ham yozgi o'yinlar kabi to'rt yillik davrda davom etishi an'anaga aylangan. Har bir o'yin ochilish va yopilish marosimlari bilan birga o'tkaziladi. 1988 yilda Seulda (Koreya) bo'lib o'tgan yozgi Paralimpiya o'yinlari va 1992 yilda Albertvil (Fransiya) qishki o'yinlaridan boshlab, Paralimpiya va Olimpiya o'yinlari bir xil shahar va joylarda o'tkazilishi uchun IPC va Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi (XOQ) o'rtasida kelishuvga erishildi. O'zbekistonlik sportchilar 2004-yil Afinada o'tkazilgan Paralimpiya o'yinlarida o'zining ilk ishtirokini boshlagan va shundan buyon ishtirok etib kelmoqda.

Asosiy qism. Parij-2024-yilgi Paralimpiya o‘yinlari tarixda eng yorqin va unutilmas sport voqealaridan biri bo‘ldi. Bu o‘yinlar nafaqat ajoyib sport natijalarini ko‘rsatdi, balki butun dunyoga imkoniyati cheklangan insonlarning kuchi, iroda va sabr-toqatini namoyish etdi. Vatanimiz O‘zbekiston delegatsiyasi ham ushbu o‘yinlarda yuksak natijalarga erishib, xalqaro arenada o‘zining sport salohiyatini namoyish etdi. Fransiyaning Parij shahrida XVII yozgi Paralimpiya o‘yinlari muvaffaqiyatli yakunlandi. 28-avgustdan 8-sentabrgacha davom etgan ushbu musobaqalarda O‘zbekiston delegatsiyasi 10 ta oltin, 9 ta kumush va 7 ta bronza, jami 26 ta medal jamg‘ardilar. Mazkur o‘yinlarda Asila Mirzayorova – uzunlikka sakrash bo‘yicha, Qudratullaxon Ma’rufxo‘jayev, Elbek Sultonov, Bobur Omonov, Xusniddin Norbekov - yadro uloqtirish bo‘yicha, Yorqinbek Odilov, Nurxon Qurbonova – nayza uloqtirish, Asadbek Toshtemirov – taekvondo, Sherzod Namozov – dzyudo, Tolibboy Yo‘ldashev – disk uloqtirish sport turlari bo‘yicha oltin medalni qo‘lga kiritdilar. Z.Isoqova, K.Hakimova, G.Naimova, D.Saliyev, S.Ibragimov, S.Burxanova, K.Xodjayeva, Sh.Yigitaliyeva, R.Kuziyevalar esa kumush medalga ega chiqishgan bo‘lishsa, T.Giyazov, T.Yo‘ldashev, N.Qurbonova, M.Hamdamova, U.Quronboyev, D.Karomatov, M.Odilovalar bronza medal bilan yurtimizga qaytishdi. O‘zbekiston sportchilari umumiy hisobda 168 mamlakat orasida 13-o‘rinni egallab, o‘z tarixidagi eng yuqori natijani qayd etishdi. Shuningdek, ular Osiyo davlatlari ichida Xitoy va Yaponiyadan so‘ng uchinchi o‘rinni, Markaziy Osiyo mintaqasida esa eng yaxshi natijani qo‘lga kiritdilar.

Yana shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, Parij-2024 paralimpiyada o‘yinlari bundan oldin o‘tkazilganlariga qaraganda ham salmoqdur bo‘ldi. Xususan, London-2012: 1 ta kumush – 57-o‘rin; Rio-2016: 8 ta oltin, 6 kumush, 17 bronza (jami 31 ta) – 16-o‘rin; Tokio-2020: 8 ta oltin, 5 ta kumush, 6 bronza (19 ta) –16-o‘rin; Parij-2024: 10 ta oltin, 9 ta kumush, 7 ta bronza (26 ta) –13-o‘rinni qayd etishdi.

Paralimpiya sportchilari yurtimizda alohida davlat siyosati darajasidagi e’tiborda. 2024-yil 13-sentabr kuni prezident Shavkat Mirziyoyev Ko‘ksaroy qarorgohida Parijdagi Paralimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston sharafini himoya qilgan sportchilar, ularning ota-onalari va murabbiylari bilan uchrashdi. Davlat rahbari o‘z nutqida sportchilarni tabriklab, ularning mashaqqatli mehnati va jasorati tufayli erishilgan yutuqlarni ta’kidladi. Prezident sportchilarni “O‘zbekiston Paralimpiya harakatining oltin avlod” deb atadi va ularning muvaffaqiyatlari butun O‘zbekiston uchun milliy g‘urur ekanligini ta’kidladi.

Parij-2024 yilgi Paralimpiya o‘yinlari dunyo miqyosida katta e’tibor qozondi, bunda O‘zbekiston sportchilari o‘zining alohida yutuqlari bilan ajralib turdi. Ushbu o‘yinlar davomida sportchilar, jumladan O‘zbekiston sportchilari sportning 9 turi bo‘yicha o‘z mahoratlarini namoyish qilishdi. O‘zbekiston delegatsiyasi ushbu o‘yinlarda katta muvaffaqiyatga erishdi. Bu

natija O‘zbekistonning xalqaro sport maydonida kuchli davlatlardan biri ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Fransiyaning Parij shahrida XVII yozgi Paralimpiya o‘yinlari yakuniga yetdi. 28-avgust - 8 sentyabr kunlari o‘tkazilgan o‘yinlarda O‘zbekiston delegatsiyasi 10 ta oltin, 9 ta kumush va 7 ta bronza, jami 26 ta medalga sazovor bo‘ldi. Bu bilan paralimpiyachilar medallar jamg‘arish bo‘yicha o‘z tarixidagi eng yaxshi natijani qayd etib, 168 ta davlat ichida umumjamoa hisobida 13-o‘rinni egalladi. Ushbu natija bilan delegatsiya Osiyo mamlakatlari orasida Xitoy va Yaponiyadan keyin uchinchi o‘ringa, shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida eng yaxshi ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. Quvonarli tomoni yana shundaki, Parij-2024 Paralimpiya o‘yinlarida o‘zbekistonlik sportchilar bir nechta yutuqlarga erishib, yangi rekordlarni o‘rnatdilar. Jumladan, Asila Mirzayorova T11 uzunlikka sakrash musobaqasida o‘zining avvalgi 5.22 metrlik rekordini 5.24 metrgacha yaxshilab, yangi paralimpiya rekordini o‘rnatdi. Para yengil atletika bo‘yicha erkaklar o‘rtasida F35 klassida yadro uloqtirish musobaqasi yakunlandi. Ushbu yo‘nalishda ishtirok etgan hamyurtimiz Husniddin Norbekov 16.82 metr natija qayd etib, uchinchi bor Paralimpiya o‘yinlari g‘olib bo‘lgan ilk o‘zbekistonlik sportchiga aylandi. Bu yutuqlar sportchilarining irodasi va xalqaro maydonlarda O‘zbekistonning obro‘sini oshiruvchi muvaffaqiyatlaridan dalolat beradi.

Xitoy delegatsiyasi Paralimpiyada yana bir bor yetakchilik qildi va jami 220 ta medal (94 ta oltin) bilan birinchi o‘rinni egalladi. Ikkinci o‘rinda Buyuk Britaniya (49 oltin, 44 kumush, 31 bronza — jami 124 ta medal), uchinchi o‘rinda esa AQSh (36 oltin, 42 kumush, 27 bronza — jami 105 ta medal) joy oldi. O‘zbekistonning bu natijasi Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida eng yaxshi ko‘rsatkich bo‘ldi.

O‘zbekiston sportchilari uchun Parij-2024 yilgi Paralimpiya o‘yinlari alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Ular nafaqat o‘z imkoniyatlarini, balki butun mamlakatning kuchini namoyish qila olishdi. Misol uchun, O‘zbekistonlik yengil atletikachi Shohrux Xudoyqulov 100 metrga yugurish bahsida oltin medalni qo‘lga kiritdi va bu bilan xalqaro sport jamoatchiligini hayratga soldi. Shuningdek, suzuvchi Dilafruz Ismoilova ham bir necha marotaba podiumga ko‘tarilib, jahon rekordlarini yangiladi. Bu natijalar O‘zbekiston sportchilarining nafaqat jismoniy tayyorgarligini, balki ruhiy tayyorgarligini ham yaqqol namoyish etdi.

O‘zbekistonning jami 26 ta medal qo‘lga kiritishi mamlakat uchun yangi tarixiy davrni boshlab berdi. Bu medallar qatorida yengil atletika, suzish va boshqa ko‘plab sohalarda erishilgan natijalar mamlakat sportchilarining dunyo miqyosida kuchli raqobatchilar ekanligini tasdiqlaydi. O‘zbekiston delegatsiyasi tomonidan qo‘lga kiritilgan oltin medallar nafaqat sportchi uchun, balki butun jamiyat uchun motivatsiya bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu natijalar sportchilarimizning nafaqat jismoniy, balki ruhiy tayyorgarligi, murabbiylarining yuksak mahorati va butun jamoaning birgalikdagi mehnatining natijasi edi.

Paralimpiya o‘yinlarining Parijdagi bosqichi nafaqat sport natijalari, balki jamoaviy ruh, barqaror rivojlanish va hamjihatlikning yorqin namoyishiga aylandi. Ushbu o‘yinlar doirasida yangi texnologiyalar va innovatsiyalar qo‘llanilishi, imkoniyati cheklangan sportchilar uchun sharoitlarning yaxshilanishi va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish borasida katta o‘zgarishlar kuzatildi. Bu esa butun dunyo uchun katta ilhom manbai bo‘ldi. Parij-2024 yilgi Paralimpiya o‘yinlarida protez texnologiyalari, tibbiy monitoring tizimlari va boshqa sport texnologiyalari keng qo‘llanilib, sportchilarga yangi imkoniyatlar yaratildi. O‘zbekiston sportchilari ham ushbu texnologiyalardan foydalangan holda o‘z natijalarini yaxshilashga muvaffaq bo‘lishdi.

Murabbiylarning yuksak mahorati sportchilarning muvaffaqiyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Murabbiylarning sportchilar bilan birga ishslash, ularning individual tayyorgarlik rejasini tuzish va jamoaviy rujni shakllantirishdagi hissasi juda katta edi. Parij-2024 yilgi o‘yinlarida muvaffaqiyatga erishgan ko‘plab O‘zbekiston sportchilari o‘z murabbiylariga o‘z minnatdorchiliklarini izhor qilishdi. Murabbiylarning qo‘llab-quvvatlashi va ularning samarali yondashuvi sportchilarni yuqori natijalarga olib keldi. Parij-2024 yilgi o‘yinlari shuningdek, ommaviy axborot vositalari va texnologik yangiliklar orqali butun dunyo bo‘ylab millionlab tomoshabinlarga yetkazildi. Ushbu o‘yinlarni yoritish borasida O‘zbekistonlik jurnalistlar ham faol qatnashib, sportchilarimizning muvaffaqiyatlarini keng jamoatchilikka yetkazishdi, bu esa O‘zbekiston sportchilariga bo‘lgan e’tiborni yanada oshirdi. Bu orqali O‘zbekiston sportchilari va ularning yutuqlari haqida dunyo ham bilib oldi, bu esa mamlakatimiz uchun katta g‘urur edi. Parij-2024 yilgi Paralimpiya o‘yinlarining yoritilishi, sportchilarning shaxsiy hikoyalari va ularning muvaffaqiyat yo‘li keng ommaga yetkazilishi orqali ularga nisbatan qiziqish yanada ortdi.

O‘zbekistonning sportga bo‘lgan e‘tibori faqatgina Paralimpiya o‘yinlari bilan cheklanib qolmaydi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning ommaviyligini oshirish uchun keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Sportchilar uchun zamonaviy infratuzilma yaratish, murabbiylarning malakasini oshirish va xalqaro tajribani o‘rganish bo‘yicha qator dasturlar qabul qilindi. Shu jumladan, sport zallarining soni oshirildi, yangi sport majmualari qurildi va mavjudlar yangilandi. Ushbu chora-tadbirlar nafaqat professional sportchilar, balki yosh avlod uchun ham katta imkoniyatlar yaratmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan sportga alohida e‘tibor qaratilib, sportchilarga va ularning oilalariga yordam ko‘rsatish, ularning ijtimoiy himoyasini ta’minlash borasida ko‘plab imtiyozlar va dasturlar joriy etildi. Ushbu qo‘llab-quvvatlash choralar sportchilarning o‘z maqsadlariga erishishiga va milliy bayroqqa yangi yutuqlar olib kelishga katta turtki bo‘lmoqda.

Parij-2024 yilgi o‘yinlari imkoniyati cheklangan sportchilar uchun yangi ufqlar ochdi. Ushbu o‘yinlar davomida qo‘lga kiritilgan yutuqlar kelajakda ham ko‘plab imkoniyatlar

eshiklarini ochadi. Misol uchun, O‘zbekiston paralimpiyachilari kelgusi musobaqalarda ham o‘z natijalarini yaxshilash uchun yangi texnologiyalar va murabbiylilik dasturlaridan foydalanishni rejalashtirmoqda. Sportchilarning shaxsiy tayyorgarlik rejasi va psixologik tayyorgarlik ham ularning yuqori natijalariga erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston sportchilari tomonidan erishilgan yutuqlar nafaqat jismoniy imkoniyatlarning, balki inson irodasining cheksiz kuchini ham namoyish etdi. Ushbu yutuqlar sportchilarning o‘zlariga, ularning oilalariga, murabbiylarga va butun O‘zbekiston xalqiga katta motivatsiya bo‘lib xizmat qilmoqda. Parij-2024 yilgi o‘yinlar O‘zbekiston uchun sportning rivoji yo‘lida muhim bosqich bo‘lib, kelajakda sportni yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Xulosa. Parij-2024 yilgi Paralimpiya o‘yinlari haqida maqolani yakunlar ekanmiz, shuni alohida ta‘kidlash joizki, bu o‘yinlar imkoniyati cheklangan insonlarning qanday ulkan imkoniyatlarga ega ekanligini namoyish etdi. O‘zbekiston sportchilari o‘z mehnatlari, matonatlari va irodalari bilan nafaqat medal qo‘lga kiritishdi, balki butun dunyoga o‘z orzulari uchun kurashish mumkinligini isbotlashdi. Ularning erishgan yutuqlari O‘zbekiston sport salohiyatining yana bir bor tasdig‘i bo‘ldi. Bu o‘yinlar nafaqat sport bayrami, balki kuch va iordaning haqiqiy namoyishi bo‘ldi. O‘zbekistonning Parij-2024 yilgi o‘yinlarida erishgan yutuqlari butun xalqimizga milliy g‘urur va sportga bo‘lgan ishtiyoqni yanada oshirdi. Bu yutuqlar kelajak avlodlar uchun katta motivatsiya bo‘lib, ularni sport bilan shug‘ullanishga ilhomlantiradi. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalar uchun sportdagi muvaffaqiyatlar yangi imkoniyatlar eshiklarini ochishi mumkin.

Foydalilanigan manba va adabiyotlar

1. Guttmann L. Paralympic Games: Origins and Development, London: Macmillan Publishing, 1976. – pp. 23-25.
2. Brittain I. The Paralympic Games Explained, Routledge, 2012. – pp. 32-34.
3. <https://www.paralympic.org/paralympic-games>
4. <http://www.paralympic.org/Sport/Results/reports.html?type=participation&games=2004PG&sport=all>
5. Paris 2024 Paralympic Games: Qualification regulations and highlights, Paris Organizing Committee, 2024. – pp. 115-118.
6. International Paralympic Committee (IPC). Official Results and Highlights of the Paris, 2024 Paralympic Games, Bonn: IPC Publications. – pp. 85-89.
7. <https://olympics.com/ru/news/parizh-2024-medalnyi-zachet-paralimpiiskih-igr>
8. <https://president.uz/oz/lists/view/7540>
9. <https://olympics.com/en/paris-2024/medals>
10. <https://kun.uz/news/2024/09/09/parijda-2024-yilgi-paralimpiya-oyinlari-yakunlandi>

11. <https://olympics.com/ru/news/parizh-2024-medalnyi-zachet-paralimpiiskih-igr>
12. <https://uzreport.news/sports/o-zbek-sportida-tarixiy-voqea-husniddin-norbekov-uch-karra-paralimpiya-o-yinlari-g-olibi>
13. <https://olympics.com/ru/news/parizh-2024-medalnyi-zachet-paralimpiiskih-igr>
14. <https://www.bbc.com/sport/olympics/68239167>
15. Peers D., Eales L. Paralympic Achievements and Future Challenges. London: Routledge, 2024. – pp. 103-106.
16. Lens: Expert topical commentary, pioneering research - Monash University
17. Gilbert K., Legg D. Adaptive Sports and Inclusion: The Path Forward. Routledge, 2024. – pp. 54-57.
18. Paris 2024 paralympic games.// Qualification regulations. – Paris, 2024. – P. 115.